

Buyuk alloma va mutaffakirlar hayoti va ta'limotini o'rganish – boshlang'ich sinflar o'quvchilari ma'naviyatini o'stiruvchi vositalardan biri.

Milliy istiqlol davrining dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan, g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan vazifa bo'lib qoldi.

Xalqning madaniy kadriyatlarini hamda ma'naviy qadriyatlarini tiklash, milliy o'zlikni anglashning o'sishida xalqning ma'naviy-ma'rifiy bilimdonligi sharq ma'naviyati ildizlarini o'rganishdan iborat ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Zero, o'qituvchi o'rgatuvchi ekan, avvalo o'zi o'rgangan bo'lishi kerak. **Shuning uchun ham donishmand xalqimiz “Bildirish uchun bilish kerak”¹** degan edi.

Xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga hos milliy madaniyatga ega bo'ldi. O'zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, va bir-biriga suyanish, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onasining bolaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlar insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdir.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, mehnatini ayamaydi.

Barcha yaxshi tilaklarimiz yuksak ma'naviyat degan tushuncha mohiyatidan kelib chiqadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “... bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurasha olishi mumkin”.

¹

Donishmand xalqimi inson hayotining eng zaruriy va ahamiyatli qismi sifatida ma'naviyatni tushunganlar. Shu boisdan, "Avesto"da insoniyat uchun eng zaruriy bo'lgan uchta asosiy qonuniyat keltiriladi. Bu: ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu faoliyat. Mana, yuksak ma'naviyatli insonning asosiy qirralari!

Prezidentimiz aynan "Avesto" g'oyalaridan ham kelib chiqib fikrlar bildirganligi quyidagi misralardan sezilib turadi:

"Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi".²

Demak, biz yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalay olsak, ota-bobolarimiz ming yillar davomida xohlagan, Prezidentimiz orzu qilgan kishilarni tarbiyalagan bo'lamiz.

Donolar kitob orqali o'zlaridan bir necha asrlar avval yashagan olimlarning asarlari bilan tanishganlar, ulardan bahramand bo'lib, o'z bilimlarini oshirganlar, ya'ni bir olimni undan avval yashagan bir necha olimlar ko'tarib turgandek bo'ladilar. Aynan shuning uchun mashhur olim I. Nyuton quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

«Men boshqalardan ko'ra uzoqroqni ko'ra olar ekanman, bunga sabab shuki, men pahlavonlarning yelkasida turar edim»³.

Buyuk olimning mazkur fikrini bizningcha, shunday tushunish kerak: «Pahlavonlar» deyilganda buyuk va taniqli olimlar tushunilmoqda, "men pahlavonlarning yelkasida turar edim», deyilganda esa, "Men taniqli olimlarning bilganlarini ularni o'qib-o'rganib bilib olgan edim" deyilmoqda. Shunday ekan, biz o'z faoliyatimiz davomida sinfimizdagi o'quvchilarimizning ongiga olimlar va shoirlarimizning ijodiy mehnatlari, mehnat qilish jarayonidagi intilish va qiziqishlarini singdira olsak, demak, biz bir qancha olimlarning yelkalarida

turuvchi ko'plab odamlarni tarbiyalab, elimiz va Vatanimiz xizmatiga shay qilib qo'yishimiz mumkin ekan.

Shunday maqsadlar asosida boshlang'ich sinflarning har birida o'tmishdan o'rganish, ulug'larga ta'zim qilish mazmunidagi matnlarni o'quvchilar o'qib o'rganadilar. Jumladan, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Navoiy, Ulug'bek singari taniqli shaxslarning hayotlaridan olingan lavhalar bilan tanishadilar. Shubhasiz, bunday matnlarni o'qib o'rganish bolalarda hunar va mehnatga, ilmga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz I. Karimov barcha yoshlarimizning o'tmishdagi allomalarimiz ko'rsatmalaridan xabardor va bahramand bo'lishlarini istaydi:

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq,- deb yozadi Islom Abdug'aniyevich Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» nomli asarida, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»⁴.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Ahmedova Gulbahor.